



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 490 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darolarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darolarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darolarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimurning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiyoy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabani xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	---



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
<i>Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li</i>	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
<i>Sultonova Nargiza Nigmatovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza</i>	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Tuffiyeva Roziya, Ismatullayev Javohir</i>	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
<i>З. Ф. Азизова</i>	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
<i>Сагатова Диёра Абдулазиз кизи</i>	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
<i>Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кызи</i>	
Академический стресс и формирование механизма “самообвинения” у студентов.....	412
<i>Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза</i>	
OTM, mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirish tizimi.....	416
<i>Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich, Abdilaxatov Zafar Abdigapirovich</i>	
O'smirlar deviant xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bosh omil sifatida.....	421
<i>Olliberdiyeva Buoysha Baxromjon qizi, Tohirova Go'zaloy Davronbek qizi</i>	
Oliy ta'limda tasviriy va amaliy san'at integratsiyasining zamonaviy pedagogik metodlari (Buxoro amaliy san'ati misolida).....	426
<i>Abdullayev Suxrob Sayfullayevich</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda steam yondashuvining roli	431
<i>Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li</i>	
Deviant xulq shakllanishining biopsixologik faktorlari.....	434
<i>Ro'ziqulova Sevinch Ubaydullo qizi, Tohirova Go'zal Davronbek qizi</i>	
Эмоциональная устойчивость как психологический фактор развития профессиональной компетентности будущих педагогов	437
<i>Рафиев Фарход Акилович</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari.....	440
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Bola nutqi buzilishlarining psixologik sabablari.....	444
<i>Xadicha Kamalova, Ziyodullo Elov</i>	
O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlash va mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish	448
<i>Xolmatova Sabohat Ilhomovna</i>	
O'qish savodxonligi darslarida xalqaro baholash tadqiqoti topshiriqlaridan foydalanish	452
<i>Boychayeva Sharifa Saidkulovna</i>	
Формирование иноязычной коммуникативной компетенции с помощью задания “диктоглосс”	457
<i>Касымова Феруза Суннатовна</i>	
Ta'lim paradigmalarining evolyutsiyasi va zamonaviy tendensiyalari	462
<i>Abdug'aniyeva Shaxzoda Shuxrat qizi</i>	
O'qish savodxonligi darslarida badiiy va ilmiy-ommabop matnlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	466
<i>Ostonova Madina Furqat qizi</i>	
Milliy cholg'u sozlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	470
<i>Raimjonov Sunnatulla O'ktamovich</i>	
Forsayt pedagogikasi asosida talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning amaliy jihatlari	474
<i>Dushaboyeva Dinara Bahrom qizi</i>	



Sun'iy intellekt yordamida individual o'qish yo'nalishini yaratish478 Irgasheva Madina Irgashovna	478
Ahmad al-Farg'oniyning hayot yo'li va ilm-fanga qo'shgan hissasi483 Temirov Nabijon Solievich, Mo'sajonova Gulxumor Abduhalim qizi	483
Data-Driven yondashuv asosida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini monitoring qilish va prognozlash modeli486 Valiyev Jasurbek Saydullo o'g'li	486

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY VA ILMIY- OMMABOP MATNLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ostonova Madina Furqat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'qish savodxonligi darslarida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning didaktik imkoniyatlari nazariy hamda metodik jihatdan tahlil qilinadi. O'qish savodxonligi zamonaviy ta'limning muhim natijasi sifatida nafaqat matnni ravon o'qish, balki uning mazmunini anglash, yashirin ma'nolarni talqin qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, dalil va fikrni farqlash hamda o'qilgan axborotni yangi vaziyatlarga tatbiq etish qobiliyatlarini qamrab olishi asoslab beriladi. Badiiy matnlarning estetik tafakkur, empatiya, interpretatsiya va aksiologik baholashni rivojlantirishdagi o'rni, ilmiy-ommabop matnlarning esa tushunchaviy fikrlash, sabab–oqibat bog'lanishlarini anglash, dalillash, umumlashtirish va tanqidiy yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi; badiiy matn; ilmiy-ommabop matn; didaktik imkoniyatlar; o'qish strategiyalari; topshiriq dizayni; rubrika asosida baholash.

Abstract: The didactic potential of literary and popular science texts in reading literacy lessons is analyzed from both theoretical and methodological perspectives. It is substantiated that reading literacy, as a key outcome of modern education, encompasses not only fluent reading, but also the ability to comprehend content, interpret implicit meanings, identify the author's position, distinguish facts from opinions, and apply acquired information in new contexts. The role of literary texts in developing aesthetic thinking, empathy, interpretation, and axiological evaluation is highlighted, while popular science texts are shown to contribute significantly to the development of conceptual thinking, understanding of cause–effect relationships, reasoning, generalization, and critical thinking.

Key words: reading literacy; literary text; popular science text; didactic affordances; reading strategies; task design; rubric-based assessment.

Аннотация: Анализируются дидактические возможности художественных и научно-популярных текстов на уроках читательской грамотности с теоретической и методической точек зрения. Обосновывается, что читательская грамотность как важный результат современного образования включает не только беглое чтение текста, но и умение понимать его содержание, интерпретировать скрытые смыслы, определять позицию автора, различать факты и мнения, а также применять полученную информацию в новых ситуациях. Раскрывается роль художественных текстов в развитии эстетического мышления, эмпатии, интерпретации и аксиологической оценки, тогда как научно-популярные тексты рассматриваются как значимое средство формирования понятийного мышления, понимания причинно–следственных связей, аргументации, обобщения и критического мышления.

Ключевые слова: читательская грамотность; художественный текст; научно-популярный текст; дидактический потенциал; стратегии чтения; проектирование заданий; оценивание на основе рубрик.

KIRISH

O'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimining tayanch natijalaridan biri bo'lib, u faqat matnni ovoz chiqarib ravon o'qish bilan cheklanmaydi. Mazkur kompetensiya matn mazmunini anglash, yashirin ma'no qatlamlarini sharhlash, muallif nuqtai nazarini aniqlash, dalil va fikrni farqlash, manbaga tanqidiy yondashish hamda o'qilgan axborotni yangi vaziyatlarda qo'llay olish kabi murakkab ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, dars jarayonida tanlanadigan matn turlari o'quvchi bajaradigan kognitiv faoliyat ko'lami, qo'llaniladigan strategiyalar majmui va baholash mezonlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Badiiy matnlar estetik idrok, obrazli tafakkur, empatiya hamda kontekstual talqinni rivojlantirsa, ilmiy-ommabop matnlar tushunchaviy aniqlik, sabab–oqibat munosabatlarini anglash, dalillash, umumlashtirish va terminologiya bilan ishlash ko'nikmalarini faollashtiradi. Biroq amaliyotda matn tanlash jarayoni ko'pincha didaktik maqsadlarga emas, mavzuning qiziqarliligiga yoki darslikda mavjud materiallarga tayanib qolmoqda.



Natijada topshiriqlar matn turiga mos kelmasligi, baholash esa asosan qayta hikoya qilish darajasida qolib ketishi kuzatiladi. Xalqaro baholash dasturlari o'qish savodxonligini ko'p qirrali konstrukt sifatida talqin etib, turli format va maqsaddagi matnlar bilan ishlashni talab qiladi. Bu esa maktab darslarida matn turlari didaktikasini yangicha asosda qayta ko'rib chiqish zaruratini kuchaytiradi [1: 5].

Mavjud ilmiy manbalarda badiiy matnlarning tarbiyaviy-estetik salohiyati hamda nutq va til rivojiga qo'shildigan hissasi keng yoritilgan. Ilmiy-ommabop matnlar esa fanlararo integratsiya va funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Shunga qaramay, o'qish savodxonligi darslari doirasida "didaktik imkoniyat" tushunchasini matnning ichki tuzilishi, semantik zichligi, pragmatik vazifasi va topshiriq dizayni bilan uzviy bog'lab, mezonli model asosida izohlash yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, badiiy hamda ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlashda o'quvchilar bajaradigan amallar ketma-ketligi, kognitiv yuklamaning muvozanati va baholash rubrikalarining mosligi masalalari ko'pincha umumiy tavsiyalar doirasida qolib ketmoqda. Shu sababli ushbu maqolada matn turlarining didaktik salohiyati o'qish savodxonligi kompetensiyalariga tatbiq etilib, strategiyalar xaritasi hamda differensial topshiriqlarni ishlab chiqish mezonlari taklif etiladi [2: 6; 7].

Maqolaning maqsadi o'qish savodxonligi darslarida badiiy hamda ilmiy-ommabop matnlarning didaktik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va ularni dars dizayni, topshiriq konstruksiyasi hamda rubrika asosida baholash jarayoniga tatbiq etuvchi modelni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilandi:

- *birinchidan*, badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning didaktik funksiyalarini o'quvchi bajaradigan kognitiv operatsiyalar bilan o'zaro bog'lash;
- *ikkinchidan*, har bir matn turi uchun ustuvor o'qish strategiyalarini tizimlashtirish va xaritalash;
- *uchinchidan*, matn tabiatiga mos topshiriqlarni differensial darajalarda loyihalash mezonlarini ishlab chiqish;
- *to'rtinchidan*, o'qish savodxonligini baholashda rubrikalashning minimal zarur ko'rsatkichlarini asoslash.

Maqolaning ilmiy yangiligi matn turi bilan o'qish savodxonligi indikatorlari o'rtasidagi uyg'unlikni "matn – strategiya – topshiriq – baholash" zanjiri asosida tizimlashtirish, shuningdek, dars amaliyotida sinovdan o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik modelni taklif etish bilan belgilanadi. Uning amaliy ahamiyati esa o'qituvchilarga matn tanlashni maqsadli tashkil etish, savol va topshiriqlarni matnning ichki xususiyatlariga mos shakllantirish hamda o'quvchi javoblarini yagona mezonlar asosida baholash imkonini beruvchi metodik yechimlarda namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qish savodxonligi masalasi zamonaviy ta'limda yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida xalqaro va milliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA konsepsiyasida o'qish savodxonligi shaxsning matn bilan ishlash, undan foydalanish va uni baholash qobiliyati sifatida talqin qilinadi, bu esa turli tipdagi matnlar bilan ishlashni taqozo etadi.

C. Snow o'z tadqiqotlarida o'qish jarayonini faqat dekodlash emas, balki ma'no qurish, interpretatsiya va refleksiya jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlar badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning o'quv jarayonidagi funksional ahamiyatini aniqlashga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham o'qish savodxonligini rivojlantirish muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi.

B. Xodjayev o'qish savodxonligini shakllantirishda matn bilan ishlash strategiyalarini tizimli qo'llash zarurligini ta'kidlaydi hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda matn turining muhimligini asoslaydi.

D. Karimova esa o'quvchilarda matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida topshiriq dizayni, savol-javob tizimi va matnning semantik tuzilishini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning didaktik imkoniyatlarini ochishda metodik asos vazifasini bajaradi.

Matnning lingvistik va psixologik xususiyatlari masalasi ham ilmiy adabiyotlarda alohida o'rganilgan.

G. Solganik matn stilistikasida badiiy va ilmiy matnlarning ifoda vositalari, kompozitsiyasi va funksional xususiyatlarini tahlil qilib, ularning o'quvchi tafakkuriga turlicha ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

J. Sweller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasi esa o'quv jarayonida matn murakabligini boshqarish va o'quvchi ongiga tushadigan axborot hajmini muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

L. Vygotskiy esa o'qish va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, matn bilan ishlash jarayonida yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalar shakllanishini ilmiy jihatdan izohlaydi. Ushbu nazariyalar badiiy va ilmiy-ommabop matnlardan foydalanishning didaktik asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy-metodologik yo'nalishda olib borilib, unda didaktika, matn lingvistikasi va o'qish psixologiyasi kesishgan nuqtadagi yondashuvlar integratsiya qilindi. Ma'lumotlar manbai sifatida o'qish savodxonligiga oid xalqaro konseptual hujjatlar, o'qitish metodikasiga bag'ishlangan monografik adabiyotlar hamda badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qitish amaliyotiga doir nazariy manbalar tanlab olindi. Tadqiqot metodlari uch asosiy yo'nalishda qo'llanildi.

Birinchi yo'nalishda nazariy tahlil va tushunchaviy aniqlashtirish amalga oshirilib, "didaktik imkoniyat" kategoriyasi matnning semantik, kompozitsion hamda pragmatik parametrlariga tayangan holda qayta talqin qilindi.

Ikkinchi yo'nalishda qiyosiy didaktik interpretatsiya asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning o'qish jarayonida faollashtiradigan kognitiv operatsiyalari – identifikatsiya, inferensiya, integratsiya, baholash va transfer jarayonlari o'zaro taqqoslandi.

Uchinchi yo'nalishda esa topshiriq konstruksiyasi va rubrikalash tamoyillariga tayangan holda matn turiga mos vazifalar prototiplari ishlab chiqildi.

Bunda murakkablik darajasini boshqarish uchun kognitiv yuklama nazariyasi hamda kompetensiya indikatorlari bilan moslik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur metodologik tanlovning asosiligi shundaki, o'qish savodxonligi faqat matn mazmunini qayta hikoya qilish emas, balki matn bilan bog'liq amaliy-intellektual operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli topshiriq dizayni va baholash mezonlari matn turining tabiati hamda funksional xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur [1; 4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning didaktik imkoniyatlari uch bosqichli model asosida umumlashtirildi: mazmuniy-semantik daraja, tuzilmaviy-kompozitsion daraja hamda kommunikativ-pragmatik daraja.

Mazmuniy-semantik darajada badiiy matn obraz, konflikt, personajlar o'rtasidagi munosabatlar va muallif subyektivligi kabi unsurlar orqali ko'p ma'nolilikni yuzaga keltirishi, shu sababli kontekstga tayangan talqinni talab qilishi aniqlandi. Ilmiy-ommabop matn esa fakt, tushuncha, izoh, sabab–oqibat bog'lanishlari va umumlashtirishlar orqali aniq hamda bir ma'noli mazmunni ifodalashga intiladi. Shu bilan birga, keng auditoriya uchun murakkab tushunchalarni soddalashtirish maqsadida metafora, qiyos va hayotiy misollardan foydalanib, tushunchaviy ko'priklar hosil qiladi.

Tuzilmaviy-kompozitsion darajada badiiy matn voqealar rivoji, syujet chiziqlari, tasviriy vositalar va nuqtai nazar almashinuvi orqali o'quvchining prognoz qilish, taxmin yuritish hamda inferensiya ko'nikmalarini kuchaytirishi kuzatildi. Ilmiy-ommabop matn esa sarlavha, kichik bo'limlar, ta'riflar, tasniflar, ro'yxatlar hamda grafik va jadvalga yaqin elementlar yordamida axborotni topish, ajratib olish va sintez qilishni yengillashtiradi. Kommunikativ-pragmatik darajada esa badiiy matn o'quvchining emotsional va aksiologik munosabatini faollashtirsa, ilmiy-ommabop matn "ishonchlilik" va "asoslanganlik" mezonlari orqali tanqidiy o'qish faoliyatini rag'batlantiradi.

Matn turi va kognitiv operatsiyalar o'rtasidagi moslik xaritasi ham muhim tendensiyalarni ko'rsatdi. Badiiy matnda literal tushunishdan keyingi asosiy yuk inferensiya va interpretatsiyaga to'g'ri keladi. Bunda obrazlar tizimi asosida xulosa chiqarish, personaj motivlarini qayta tiklash, muallif pozitsiyasini bilvosita belgilar orqali aniqlash, mavzu va g'oyani ajratish kabi faoliyatlar ustuvor hisoblanadi. Ilmiy-ommabop matnda esa axborotni topish va integratsiya qilish jarayonlari yetakchi bo'ldi. Jumladan, ta'rif va dalillarni aniqlash, sabab–oqibat zanjirini tiklash, tushunchalar ierarxiasini ko'rsatish hamda matndan tashqari bilimlar bilan bog'lab umumlashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Baholash operatsiyasi har ikkala matn turida mavjud bo'lsa-da, uning mezonlari farqlanishi kuzatildi: badiiy matnda estetik va aksiologik yondashuvlar (qahramon xatti-harakatiga munosabat, voqea yakunining asoslanganligi), ilmiy-ommabop matnda esa dalilning yetariligi, manbaning ishonchliligi va mantiqiy izchillik asosiy mezon bo'lib xizmat qildi.

Topshiriq dizayni bo'yicha tadqiqot natijasida differensial uch pog'onali konstruksiya taklif etildi.

Birinchi pog'ona qayta tiklash va lokal tushunish vazifalarini qamrab olib, badiiy matnda voqealar ketma-ketligi, personajlar, makon–vaqt belgilarini aniqlashni, ilmiy-ommabop matnda esa terminlar, asosiy g'oya va tayanch dalillarni ajratishni nazarda tutadi.

Ikkinchi pog'ona integratsiya va inferensiyaga yo'naltirilib, badiiy matnda yashirin ishoralar asosida sabab–oqibatni topish, personaj nutqi bilan muallif nutqini farqlashni, ilmiy-ommabop matnda esa bir nechta paragraf asosida umumiy xulosa chiqarish, dalillarni taqqoslash, soddalashtirilgan model yoki sxema yaratishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi pog'ona esa baholash va transferga qaratilib, badiiy matnda muallif uslubining ta'sirini sharhlash hamda g'oyani real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashni, ilmiy-ommabop matnda esa muqobil izoh taklif qilish, cheklovlarni ko'rsatish, amaliy tavsiya yoki qaror ishlab chiqishni ko'zlaydi.

Mazkur pog'onalar uchun rubrika ko'rsatkichlari sifatida javobning matnga tayanganligi, dalillash sifati, mantiqiy izchillik, termin va tushunchalardan o'rinli foydalanish, talqinning muqobilligi hamda xatolar tipi kabi mezonlar ajratib ko'rsatildi.



Olingan natijalar o'qish savodxonligini shakllantirishda matn turini "kontent" sifatida emas, balki didaktik mexanizm sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro yondashuvlarda o'qish savodxonligi turli maqsad va kontekstlarda matndan foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinadi; bu esa darsda bitta matn turiga tayanib qolmasdan, matnlar xilma-xilligini strategik boshqarishni talab qiladi ^[1].

Taklif etilgan "matn – strategiya – topshiriq – baholash" zanjiri aynan shu talabni metodik jihatdan aniqlashtiradi: badiiy matnlar orqali o'quvchining interpretativ kompetensiyalari, til sezgirligi va aksiologik refleksiyasi chuqurlashadi; ilmiy-ommabop matnlar orqali esa tushunchaviy fikrlash, dalil bilan ishlash, axborotni qayta tuzish va tanqidiy tekshirish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Shu ma'noda natijalar rus va xalqaro metodik adabiyotlarda qayd etilgan matn bilan ishlash strategiyalarini o'qish savodxonligi darslari dizayni bilan bevosita bog'laydi hamda amaliy rubrikalash mezonlarini aniqroq chegaralaydi ^[3; 5].

Natijalarning amaliy ahamiyati. O'qituvchi badiiy matnni tanlash jarayonida savollarni faqat syujet mazmunini qayta tiklashga yo'naltirib qo'ymasdan, balki nuqtai nazar, subtekst, badiiy detal hamda stilistik vositalarning ma'no hosil qilishdagi rolini ochib berishga qaratilgan topshiriqlarni ham ishlab chiqishi mumkin. Ilmiy-ommabop matnlarda esa oddiy "mazmunni aytib berish" yondashuvidan voz kechilib, ta'riflarni ajratish, dalillarni tizimlashtirish, sabab–oqibat munosabatlarini modellashtirish hamda axborot ishonchligini tekshirish kabi faoliyatlar ustuvorlik kasb etadi. Rubrika asosida baholash esa o'quvchi javoblarini aniq va shaffof mezonlar orqali tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish hamda keyingi o'qish strategiyalarini individuallashtirish imkonini beradi. Shu tariqa baholash jarayoni "to'g'ri – noto'g'ri" yondashuvidan chiqib, rivojlantiruvchi va sifatga yo'naltirilgan tizimga yaqinlashadi.

Mazkur maqola nazariy sintez va didaktik modellashtirishga tayanganligi sababli, taklif etilgan xarita va rubrikalarning samaradorligi real sinf sharoitida eksperimental tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. Kelgusida o'quvchi javoblari korpusini tahlil qilish, o'qituvchilararo baholash ishonchligini o'rganish orqali modelning validligi yanada mustahkamlanishi mumkin. Shuningdek, matn murakkabligini miqdoriy ko'rsatkichlar (leksik zichlik, sintaktik murakkablik, konseptual yuklama) bilan topshiriq murakkabligi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik asosda tekshirish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhitida giper-matnlar va multimodal resurslar asosida o'qish strategiyalarini integratsiya qilish ham istiqbolli tadqiqot yo'nalishi sifatida ko'riladi ^[2].

Amaliy tahlil natijalari. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi badiiy va ilmiy-ommabop matnlar hamda ularning metodik tuzilishi o'rganilganda, ilmiy-ommabop matnlar o'quvchining kognitiv faolligini oshirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan boyitilgani aniqlandi. Masalan, "Quyosh tizimi", "Qum qayerdan paydo bo'lgan?" va "Suvda xotira bor" kabi matnlar asosida berilgan topshiriqlar o'quvchidan nafaqat axborotni eslab qolish, balki uni tahlil qilish va umumlashtirishni ham talab etadi. Xususan, "Suvda xotira bor" matni asosida berilgan savollar o'quvchilarning yashirin ma'nolarni talqin qilish, dalil va fikrni farqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Qum qayerdan paydo bo'lgan?" matnidagi ketma-ketlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar esa tabiiy jarayonlarni sabab–oqibat munosabatlari asosida tushunishga xizmat qiladi. 4K (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik) modeliga asoslangan kreativ savollar esa o'quvchilarning bilimni yangi vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganish natijalari o'qish savodxonligi darslarida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning didaktik imkoniyatlari ularning semantik, kompozitsion va pragmatik xususiyatlari orqali belgilanishini ko'rsatdi. Badiiy matnlar interpretatsiya, inferensiya, aksiologik baholash va estetik idrokni rivojlantirsa, ilmiy-ommabop matnlar axborotni ajratish, integratsiya qilish, umumlashtirish va dalil asosida tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Taklif etilgan strategiyalar xaritasi va differensial topshiriq modeli o'qish savodxonligini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Rubrika asosida baholash esa o'quvchi faoliyatini aniq mezonlar asosida tahlil qilish orqali rivojlantiruvchi ta'lim sifatini oshiradi. Umuman olganda, matn tanlovi, topshiriq dizayni va baholashning uyg'unlashtirilgan modeli o'qish savodxonligi darslarida chuqur tushunish va metakognitiv fikrlashni rivojlantirishning samarali metodik asosini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019-yil. – 352 p.
2. Xodjayev B. O'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021-yil. – 208 b.
3. Солганик Г. Я. Стилистика текста. – Москва: Флинта, 2018-yil. – 256 с.
4. Sweller J. Cognitive Load Theory. – New York: Springer, 2011-yil. – 336 p.
5. Snow C. E. Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. – Santa Monica: RAND Corporation, 2002-yil. – 156 p.
6. Karimova D. O'quvchilarda matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020-yil. – 180 b.
7. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: АСТ, 2019-yil. – 320 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.